

## Lecture 13. Estimation of the effectiveness of innovations

### Ma'ruza 13. Innovatsiya samaradorligini baholash

#### 1. Innovatsiyadan foydalanish samaradorligi

Innovatsion loyiha tanlab olingandan so'ng navbatdagi innovatsiyadan foydalanish bosqichi boshlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida halq xo'jaligining barcha tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish hayotiy zaruriyatga aylanishi natijasida innovatsiyadan foydalanish samaradorligini baholashning roli yanada ortadi. Bu, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ko'zlangan natijalar va harajatlarni hisobga olishning ahamiyatidan kelib chiqib, samara quyidagi turlarga bo'linadi.

*9-jadval*

#### Innovatsiyaning amalga tatbiq etish samarasi turlari

Samara turi	Omillar, ko'rsatkichlar
iqtisodiy	Innovatsiyani tatbiq etishga doir barcha turdagi natija va harajatlar qiymat ko'rinishida ifoda etiladi.
Ilmiy – texnik	Yangilik, soddalik, foydalilik, kompakt, estetik.
Moliyaviy	Ko'rsatkichlar hisob – kitobi moliyaviy natijalarga asoslanadi
Manba jihatidan	Ko'rsatkichlar innovatsiyani u yoki bu turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi va iste'molchining ta'sirini ifoda etadi.
Ijtimoiy	Innovatsiyani tatbiq etishning ijtimoiy natijalarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar.
Ekologik	Shovqin, magnit maydoni, yoritilganlik, silkinish. Ko'rsatkichlar innovatsiyani atrof – muhit muhofazasiga ta'sirini ifoda etadi.

Qilingan harajatlar va olingan natijalarni hisobga olinish davriga qarab, innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishi samarasi ajratib olingan ma'lum bir davr samarasi va yillik samaraga bo'linadi.

Olingan vaqt davomiyligi quyidagi omillarga bog'liq.

- Innovatsion davr davomiyligi.
- Innovatsion ob'yekt xizmat muddati.
- Boshlang'ich ma'lumotlarni ishonchlilik darajasi.
- Investorlar talabi.

Samarani baholashning umumiy tamoyili – bu olingan natijani qilingan

harajatga taqqoslash hisoblanadi.

Olingan natija va qilingan harajat nisbati ham natura, ham qiymat shaklida holatdan kelib chiqib ifodalanishi va bu holda doimo bir xil bo'lmashligi mumkin, shuni unutmash kerakki, ishlab chiqarish samaradorligi bu doimo nisbiydir.

Umuman olganda, innovatsiyani iqtisodiy samaradorligini aniqlash muammosi va innovatsiyani amaliyotga tatbiq etishning eng qulay yo'llarini tanlash, bir tomondan innovatsion foydalanish hisobiga erishiladigan samarani ortishini, ikkinchi tomondan olingan natijalarni oldingi erishilgan natijalarga taqqoslashni talab etadi. Bu, ayniqsa, jadallashgan amortizatsiya hisoblash usulidan foydalanuvchi firmalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday holatda ishlab turgan mashina va mexanizmlarni yangisiga almashtirish muddati keskin kamayadi.

## **2. Innovatsiyani umumiy iqtisodiy samarasi**

Innovatsiyani umumiy iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

1. Integral samara.
2. Rentabellik indeksi.
3. Rentabellik normasi.
4. Qoplash muddati.

1. Integral samarasi bu, odatda, diskont natijalarni va harajatlarni hisobga olgan holda hisobot davridagi olingan natijani qilingan innovatsion harajatlardan farqini ifoda etadi.

Ayrim manbalarda integral samara diskontlashgan daromad, sof keltirilgan yoki sof haqiqiy qiymat, sof keltirilgan samara ham deb yuritiladi.

### **1. Innovatsiyaning rentabellik indeksi**

Yuqorida keltirilgan diskontlangan samara usuli innovatsiyaga sarf qilinadigan mablag'lar chegaralangan hollarda samarali bo'lib, bu usul yuqori tashkilotga bo'ysunuvchi va yuqori tashkilotdan moliyaviy yordam oluvchi korxonalarda keng qo'llaniladi.

Rentabellik ko'rsatkichi sifatida rentabellik indeksidan foydalanish mumkin. U boshqa nom bilan ham atalishi mumkin: daromadlilik indeksi, foydalilik indeksi.

Boshqacha aytganda, bu yerda to'lovlar ikki oqimi daromadli va investitsion oqimlari taqqoslanadi.

Rentabellik indeksi integral samara bilan uzviy bog'liq. Agar integral samara ijobiy bo'lsa, rentabellik indeksi 1 dan katta bo'lib, innovatsion loyiha iqtisodiy

jihatdan hisoblanadi. Agar integral samara salbiy bo'lsa, rentabellik indeksi 1 dan kichik bo'lib, innovatsion loyiha iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'ladi.

Mablag'lar taqchilligi yoki yetishmasligi sharoitida, rentabellik indeksi yuqori bo'lgan loyihalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

3. Rentabellik normasi- bu shunday diskont normasini ifoda etadiki, ma'lim bir yillardan so'ng diskontlashgan daromad miqdori innovatsiya uchun qo'yilgan mablag'ga teng bo'ladi. Bu ko'rsatkichlar innovatsion loyiha daromadi va harajatini ma'lum bir hisob davrida keltirish orqali aniqlanadi.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu ko'rsatkich aniq bir innovatsion qarorni diskont stavkada hisoblangan holdagi daromadlilikni ifoda etadi. Bu holatda innovatsiya hisobidagi pul oqimining kelgusi qiymati innovatsion mablag'ning hozirgi qiymatiga aylanadi.

Rentabellik normasi ko'rsatkichi ichki daromadlilik normasi, ichki foyda normasi, investitsiyani qaytarish normasi boshqa nomlar bilan ham atalishi mumkin.

Xorijda rentabellik normasini hisoblashga investitsiyani dastlabki tahlilida birinchi qadam sifatida qaraladi. Kelgusi tahlillarda daromadning ichki normasi 15-20 foizdan kam bo'lmagan innovatsion loyihalar tanlab olinadi.

Olingan rentabellik normasi investor talab etgan rentabellik normasi bilan taqqoslaniladi. Agar u investor talabi darajasidan past bo'lmasa, innovatsiya loyihani qabul qilish bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Agar innovatsion loyiha to'lig'icha bank krediti hisobiga moliyalashtiriladigan bo'lsa, rentabellik normasi daromadidan, bank foiz stavkasining yuqori chegarasi darajasidan kam bo'lmasligi kerak. Chunki bank stavkasining rentabellik darajasidan ortib ketishi innovatsion loyihaning iqtisodiy samarasizligini bildiradi.

Agar innovatsion loyiha manbalar hisobiga moliyalashtirilgan bo'lsa, rentabellik darajasining quyi chegarasi avanslashgan kapital balansiga mos kelishi shart.

4. Qoplash muddati – ni investitsiya samaradorligini baholashning eng keng tarqalgan muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Buning amaliyotda "Kapital mablag'larning qoplash muddati" ko'rsatkichidan farqi shundaki bu ko'rsatkichni hisoblash olinadigan foydaga emas, balki innovatsiya orqali kiritiladigan mablag'larni haqiqiy qiymat bo'yicha ifodalangan pul oqimi summasiga aoslanadi.

Bozor sharoitida investitsiya kiritish jarayoni ma'lum darajada tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lib, bu yerda tavakkalchilik qancha yuqori bo'lsa, kiritilgan mablag'larni qoplash muddati uzoq bo'ladi.

Bu yerda: K – innovatsiya uchun kiritilgan boshlang'ich investitsiya D-yillik pul daromadlari.

Bu ko'rsatkichlardan amaliyotda foydalanilishi kiritilgan samarani berishi muqarrardir.

### **Nazorat savollari**

1. Samaraning asosiy turlarini ko'rsatib bering.
2. Keltirilgan daromad usulini mohiyati nimada?
3. Qoplash muddati tushunchasini mohiyatini aytib bering.  
samaradorlik orasida qanday farq bor?
5. Innovatsiyani umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash ko'rsatkichlar tizimini ayting?
6. Rentabellik indeksini aniqligi nimada?
7. Integral samarani aniqlashni asosi nimada?